



YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA TA’LIM MUASSASALARI RAHBARINING JAMOADA AXLOQIY MUHITNI SHAKLLANTIRISHDAGI PEDAGOGIK YONDASHUVI

Saidqulova G.O.

*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Maktabgacha ta’lim fakulteti o’qituvchisi*

Tayanch so’zlar: jamoa, tarbiya, individ, kollopivist, individualist, pedagogik faoliyat, pedagogik jamoani boshqarish, ijtimoiy umidlar, avtoritar, demokratik, liberal.

Ключевые слова: коллектив, образование, личность, коллопивист, индивидуалист, педагогическая деятельность, управление педагогическим коллективом, социальные ожидания, авторитарный, демократический, либеральный.

Key words: team, education, personality, collopivist, individualist, pedagogical activity, management of the teaching staff, social expectations, authoritarian, democratic, liberal.

Jamoa ijtimoiy jamiyatning bir qismi hisoblanadi, unda ijtimoiy hayot va kishilik munosabatlarining barcha me’yorlari o’z ifodasini topadi. Zero, jamoa jamiyatdagi mavjud munosabatlar tizimida namoyon bo’lar ekan, jamoa va ijtimoiy jamiyat maqsadi, intilishida o’zaro birlik uzviy maqsadga muvofiq tashkil etadi. Shu bois jamoa hayotining bir yagona maqsadga qaratilganligi va ijtimoiy g’oyaviy yoo’nalganligi uning yetakchi belgisi hisoblanadi. Pedagogik ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish ma’lum bir o’zaro bog’liq elementlardan iborat bo’lgan murakkab tizim sifatida qaraladi. Bunday elementlarga uning faoliyatini belgilovchi maqsadlar, vazifalar, vositalar, shakl va usullar, sub’ekt, boshqaruv ob’ekti, tamoyillari va funktsiyalari kiradi.¹

Jamoa barcha a’zolarining himoyalanganligi o’ta muhimdir. Har bir tarbiyalanuvchi, u qanchalik zaif, kuchsiz bo’lmasin, o’zining yakkaligi yoki himoyasizligini his etmasligi kerak. Pelagogik jamoada o’zaro manosabatlarning rasmiy va norasmiy tuzilishlari ajratilib ko’rsatiladi. Bu yerda har ikki tuzilish shaxs jamoada egallashi mumkin bo’lgan nuqtai nazardangina qarab chiqiladi.

Pedagogik jamoani boshqarish vaziyatlarini tashkil etish pedagog tomonidan sinfda jamoa faoliyatini tanlash va tashkil etishdan boshlanadi, chunki bu jamoadagi ayrim guruhlar va ularning peshqadamlari pozitsiyalarini o’zgartirish



va mustahkamlashga qaratilgan birinchi qadamdir. Ta'lim muassasalarini boshqarishning bir qancha funksiyalari mavjud. V.S.Lazarev ular orasida rejalashtirish, tashkil etish, etakchilik va nazoratni ajratib turadi. Ushbu asosiy funksiyalarga V.A.Slastenin pedagogik tahlil, maqsadni belgilash, tartibga solishni qo'shadi. Ushbu o'qituvchilarning fikrlarini umumlashtirib, biz pedagogik jamoani boshqarishning quyidagi funksiyalarini ochib beramiz: tahlil qilish, maqsadni belgilash va rejalashtirish, tashkil etish, etakchilik, nazorat va tartibga solish.

Pedagogik jamoaning asosiy belgilari ichki, ishonchili xotirjamlikning namoyon bo'lishi, doimiy tetiklik, harakat qilishga tayyorlik muhim hisoblanadi. Jamoa har bir a'zosida o'z qadr-qimmatini bilish tuyg'usining mavjudligi, o'z jamoasi bilan faxrlanish tuyg'usi bo'lishi lozim. Munosabatlarning rasmiy tuzilmasi - bu tashqaridan, jamiyat tomonidan berilgan va ushbu jamoa faoliyat ko'rsatishi zarur bo'lgan holatlar (pozitsiya) sistemasidir.

Jamoa o'zida mujassam etishi kerak bo'lgan xususiyatlari:

1. Ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadning mavjudligi.
2. Birgalikdagi umumiy faoliyatning tashkil etilishi.
3. Majburiy mas'uliyatli munosabatning yo'lga qo'yilishi.
4. Saylangan umumiy rahbar organga egalik.

Rahbarning jamoaga nisbatan madaniyatligi, xalqparvarligi, ya'ni; Kishilarga e'tibor va hurmat;

- Kishilarga xayrixoh va iltifotli bo'lish;
- Oliyjanoblik va beg'arazlik, xolislik;
- Kishilarning qadr – qimmatiga yetish kabilar;
- Fuqarolik va kasbiy burchini bajarish;
- Odamlarga ishonch kishilarning o'z kuchiga qobiliyatiga bo'lgan ishonchini qo'llab – quvvatlay olish uni shaxsiy kamchiliklarini bartaraf qilishga yo'naltira bilish;
- Yuqori nutq madaniyatiga ega bo'lish va tashqi ko'rinishdagi ozodaligi;
- O'zaro munosabatdagi quyidagi oddiy e'tiqod qoidalariga rioya qilish;
- Xushmuomalalik;
- Sipolik;
- Kamsuqumlik;
- Vazminlik;
- Andishalilik;
- Mehnat va do'stlikdagi sherikchilikda o'zaro yordam va qo'llab quvvatlash;
- Hozirjavoblik va majburiylik so'zsiz bajarishlik;
- Prinsipiiallik va ishonch;
- Talabchan. Rahbarning jamiyatga nisbatan madaniyatligi. 2

Yuqorida sanab o'tilgan sifatlar va xislatlar rahbar va xodimning jamoada o'z o'rnini topishga juda ahamiyatga ega.



Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimini isloh qilish, takomillashtirish, soha bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni o'rganish va dunyo tajribasidan o'rnak olgan holda milliy tarbiya modelini ta'lim tizimida qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi zamon pedagogi kreativ fikrga ega, mustaqil va erkin fikr mulohazalarni bayon eta oluvchi, soha yangiliklaridan xabardor bo'lishi lozim. Umumta'lim maktablarida pedagogik kadrlarni boshqarish muammosi, birinchi navbatda, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida maktablarimizda yosh avlodni tarbiyalash samaradorligini oshirish bilan bog'liq. Ta'lim va tarbiya masalasi har bir davrga xosdir. Bugungi kunda ham mustaqil davlatlar uchun raqobatbardosh mehnat resurslariga ehtiyoj yuqori. Ta'lim va tarbiya samaradorligiga maktabni boshqarish tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish orqaligina erishish mumkin. Maktab ijtimoiy tashkilot bo'lib, u odamlarning (o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar) birgalikdagi faoliyati tizimi bo'lganligi sababli, uni samarali boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Конаржевский Ю.А. Педагогический анализ учебно-воспитательного процесса и управление школой. - М.: Педагогика, 1986. - 144 с. (Konarzhovsky Yu.A. Pedagogical analysis of educational and educational processes and management of schools).
2. Davletshin, M. (2002). Umumiy psixologiya. TDPU.
3. Fotima Haqqiyeva. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruvni tashkil etishning innovatsion pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish mexanizmlari *Международный Научный журнал № 15 (100), часть 2 «Научный импульс»* Ноябрь, 2023
4. Saidqulova Gavhar Odiljon qizi Musurmonov Raxmatilla Yangi O'zbekiston sharoitida pedagogik jamoani zamonaviy talablar asosida innovatsion boshqarishning usullari *Международный научный журнал № 1(100), часть 3 «Научный Фокус»* май, 2023
5. Jabbor Usarov. (2019, June). Using Teaching Methods for Development Pupil Competencies. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 15(1), 272-274.

РЕЗЮМЕ

Hozirgi rivojlanib borayotgan dunyoda pedagogik faoliyat faol ijtimoiy mavqega ega bo'lib, rahbarlarning ta'lim darajasini oshirish vazifalarini maqsadli ravishda amalga oshirishni talab etadi. Ushbu maqolada insonning ma'naviy va ma'rifiy axloqi uchun jamoaning qay darajada muhimligi, u yerdagi odab-axloq me'yorlari pedagogik jamoa va uni shakllantirish yo'llari, uslublari yoritilgan. Pedagogik jamoaning ruhiy muhitini tahlil qilish usullari ko'rsatib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В современном развивающемся мире педагогическая деятельность занимает активную социальную позицию и требует целенаправленной реализации задач повышения уровня образования лидеров. В данной статье описано, какое значение имеет коллектив для духовно-педагогической этики человека, нравственные нормы педагогического коллектива, а также пути и методы его формирования. Показаны методы анализа психической среды педагогического коллектива.

SUMMARY

In the modern developing world, pedagogical activity takes an active social position and requires the targeted implementation of tasks to improve the level of education of leaders. This article describes the importance of the collective for the spiritual and pedagogical ethics of a person, the moral standards of the teaching staff, as well as the ways and methods of its formation. Methods for analyzing the mental environment of the teaching staff are shown.